

Xidirova Manzura Abdig'ani qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institutining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1 kurs 7-24 guruh talabasi 1998 yil 7- oktabr Yakkabog' tumanida tug'ilgan

O'ZBEK AYOLI

Jonkuyar insonsiz, beminnat ustoz
Mehribon onasiz, go'zal lolasiz
Mehringiz taftidan erur muz yurak
She'rlaringiz qalbimda hayodan darak
Siz o'zbek farzandi hurlik timsoli
Xalqingiz sevgani Zulfiyasisiz.

O'tgan kunlaringiz xotirlab bugun
Sizga she'r atadim yurakdan shu kun
Hurmatim bir olam mehrim bir olam
Sizning izingizdan tashlarman qadam
Siz shunday mo'tabar ulug' ayolsiz
Xalqingiz sevgani Zulfiyasisiz

Sadoqatdan so'yilasam tillarim ojiz
Muhabbatdan so'zlasam qalblarim ojiz
Vafonida kuylasam ming bitta jonlar ojiz
Hatto ijod boshlagan qalam va qo'llar ojiz
Siz esa vafo ila sadoqat nishonisiz
Xalqingiz sog'ingan Zulfiyasisiz

Hamid olimjonning yodimda hamon
O'rik gullarini tanitgan zamon
Ruhingiz shod bo'lsin hayot kuychisi
Qabringiz bezatsin bahor elchisi
Siz baxtli insonsiz farishtadursiz
Men sevgan shoiram Zulfiyadursiz

SENSIZ SHE'RIYAT

Qo'linga qalamni mahkam ushladim
Qalbimda his etdim sokin bir titroq
Qog'ozni qoralab ijod boshladim
Yuzimda tabassum, hayajon ko'proq
Bog'landim men senga nurli tabiat
Bugun yasholmasman sensiz she'riyat

So'zlarim sirlashib qo'limni tutar
Fikrlar mujassam dilning poyida
Borlig'im barisin shu qog'oz yutar
Egilar bu ko'nglim qalam qoshida
Ko'rsatgin ey hayot mehr oqibat
Zinhor, yasholmasman sensiz she'riyat

O'zim ham sezmayin sening yo'lingdan
Qadamim tashladim dildan yurakdan
Dunyoying o'zingga mahliyo qildi
Sirli ohanglaring yuragim tildi
Yillar o'tsa hamki yashar barhayot
Baribir, yasholmasman sensiz she'riyat

OVVORALAR

Dunyoni bezatmoq qo'lingizdadur
Qalblarni bezatmoq dilingizdadur
Shirin so'z so'zlamoq tilingizdadur
Shunday ham qilasiz parvona bo'lib
Yurakni aldaysiz vayrona qilib

Qayrilib qaraydi shirin so'zlarga
Ko'ngil ko'z tashlaydi humor ko'zlarga
Yurak talpinadi visol kunlarga
O'sha kun kelganda begona bo'lib
Alvido deysiz - u ketasiz kulib

Qayda qoldi endi shirin xotiralar
Ne manzilda yuraksiz bu parvonalar
Balki ular o'zgalarga ovvoralar
Bilib bo'lmas bu sarobli taqdirlarni
Olloh doim bir jon qilsin yaqinlarni.

HOKISORIM ONAJONIM

Dunyoga keltirib oq yuvib tarab
Ollohdan doimo baxt omad so'rab
Hech kimdan kam qilmay hatto bizlarni
Kun -tun mehnatla bedor to'lg'ondi
Dunyoga alishmam men jahonimni
Soddagina hokisorim mehribonim Onajonimni

Goho sizni ranjitdim og'ritdim men dildingiz
Xafa bo'lmay erkalab shirin qizim dedingiz
Men o'yladim onalar sira xafa bo'lmaydi
Bilsam ular faqat qalbi bilan yig'laydi
Kulib turib dardini ichga yutgan ozorim
Soddagina hokisorim betakrorim Onajonim